

AMALIY FILOLOGIYA

AYRIM RUSCHA FAMILIYALARNING TURKIY
ASOSLARI XUSUSIDA

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/PSIS4086

Saodat Muhamedova¹**Abstrakt**

Mazkur maqolada rus tilidagi turkiy soʻzlarning tadqiqi, rus tiliga sharq tillaridan, xususan, turkiy tillardan oʻzlashgan soʻzlar borasida olib borilgan tadqiqotlar sharhi berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada N.Baskakov, V.Radlov va boshqa olimlarning mavzu doirasidagi tadqiqotlari tahlil qilinib, shu asosda ayrim ruscha familiyalarning turkiy ildizlari xususida fikrlar bildirilgan.

Kalit soʻzlar: *turkizm, turkiy asosli ismlar, turkiy asosli familiyalar, leksik oʻzlashmalar, rus tilidagi turkizmlar lugʻati.*

KIRISH

Maʼlumki, rus tilida turkiy soʻzlar birinchi marta XV-XVII asrlarda qayd qilina boshlagan. Bunday soʻzlarning rus tiliga kirib kelishi Qozon va Qrim xonliklari, Turkiya bilan diplomatik, iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi va rivojlanishi bilan bogʻliq. Turkiy (Sharq) tillaridan rus tiliga oʻzlashtirilgan soʻzlarni oʻrganishga bagʻishlangan birinchi ishlar XVIII asrga toʻgʻri keladi. Oʻsha davrdagi jurnallarda sharqona kelib chiqishga ega boʻlgan soʻzlar «roʻyxatlari» nashr etilar, ular orasida turkiy leksik oʻzlashmalar (“turkcha”, “tatarcha” va boshqalar deb ataladigan soʻzlar) ham bor edi. Xususan, Moskva shahri va Moskva oblastida turkiy tillarga xos boʻlgan otlardan olingan joy nomlari ham mashhur. Masalan, *Кашира* (turkiycha - Kosh ‘yurta’), *Балчуг* (turkiycha balchiq), *Арбат* (arabcha rabat, rabad, rabot), Таганка (qozonlar uchun uchoyoqli taganlar tayyorlaydigan ustalar yashaydigan joy maʼnosida), *Ордынка* (Oʻrdaga ketiladigan yoʻl maʼnosida), *Толмачевский переулок*

¹Saodat Muhamedova Xudayberdiyevna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili universiteti Oʻzbek tili taʼlimi fakulteti dekani

E-manzil: muhamedova.saodat@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2104-450X

Iqtibos uchun: Muhamedova, S.X. 2023. “Ayrim ruscha familiyalarning turkiy asoslari xususida” Oʻzbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 4-15. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/PSIS4086.

(talmachlar - tilmoch-tarjimonlar yashaydigan ko'cha ma'nosida), Китай-город (xitoyliklar yashaydigan ko'cha), Черкизовские улицы (turkiycha < Serqiz).

Shunga ko'ra, XIX asr boshlarida turkiy tilli davlatlar bilan til aloqalari mustahkamlanib, Rossiyada turkiy va sharq tillarda so'zlashuvchi tarjimonlar (tilmochlar) va mazkur tillarni biladigan diplomatik xodimlar tayyorlana boshlangan.

Moskva shahrining o'zida ham ko'plab ko'chalarning nomi turkiy asosga ega: *Татарская улица* (tatar millatining nomidan olingan); *Туркменский проезд* (turkman etnonimidan olingan); *Боярский переулок*; *Уланский переулок* (turkcha *o'g'lon* so'zidan olingan), *Басманная улица*, *Басманный переулок*, *Басманный тупик* (turkcha *bosmoq* fe'lidan olingan, bosadigan, nashr qiladigan korxonalar joylashgan); *Ямская улица* (kurerning zahira oti); *Илимская улица* (turkcha - ilim (smola)); *Колпачный переулок* (turkiycha *qalpoq* so'zidan); *Шаганский переулок* (turkiycha - *shagan*).

Shuningdek, Moskvada turkiycha familiya va laqablar bilan bog'liq bir nechta nomlar ham alohida ajralib turadi: *Аксакова переулок*, *Алимова улица*, *Алебьева улица*, *Бабаевская улица*, *Барыковский переулок*, *Бахметьевская улица*, *Бабичева улица*, *Бирюзова маршала улица*, *Бирюлево поселок*, *Булатниковская улица*, *Булгаковский переулок*, *Бутаково*, *Аркадия Гайдара улица*, *Гоголя улица*, *Дашков переулок*, *Ермолова генерала улица*, *Ибрагимова улица*, *Измайловская площадь*, *Казакова улица*, *Кантемировская улица*, *Карамышевский проспект*, *Карташевский переулок*, *Ковылинский переулок*, *Козлова улица*, *Кочновский переулок*, *Кулаковский переулок*, *Кутузова проспект*, *Мичуринский проспект*, *Наримановская улица*, *Нарышкинский проспект*, *Огарева улица*, *Сабурово*, *Салтыковская набережная* va b.

Shunga ko'ra, rus tilidagi turkiy so'zlarning tadqiqi, rus tiliga sharq tillaridan, xususan, turkiy tillardan o'zlashgan so'zlar, xususan, ayrim ruscha familiyalarning turkiy asoslarini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Rus tiliga o'zlashgan turkiy so'zlarni o'rganish bo'yicha ilk fundamental ishlar Qozon universiteti xodimlari: Y.O.Yarsov, I.Yakovkin, F.I.Erdman, I.N.Berezin va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. 1854-yilda akademik I.I.Sreznevskiy tomonidan

nashrga tayyorlangan «Материалы для сравнительного и объяснительного словаря и грамматики» asarining birinchi jildida ham rus tiliga o'zlashgan turkiy so'zlar haqida ilk ma'lumotlar mavjud [Sreznevskiy 1854]. Mazkur asar rus adabiy tilida ham, uning shevalarida ham turkiy leksik elementlarni keng va batafsil o'rganish bo'yicha ilk tajribalardan biri bo'lgan edi.

Rus tilidagi turkiy va sharq tillaridan olingan o'zlashmalarni o'rganish A.F.Rixter [Rixter 1822], I.Erdman [I.Erdman 1828], A.K.Kazembek [Kazembek 1852], I.I.Ilminskiy [Ilminskiy 1857], O.Muxlinskiy [Muxlinskiy 1858], I.N.Berezin [Berezin 1865], M.Nalivkina [Nalivkina 1886] lar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik P.M.Melioranskiy [Melioranskiy 1902], F.E.Korsh [Korsh 1903], N.S.Likoshin [Likoshin 1916], V.Nalivkin [Nalivkin 1917] lar turkizmlarni o'rganishga katta hissa qo'shdilar.

Shuningdek, V.I.Abayev [Abayev 1949], S.E.Malov [Malov 1951], V.A.Gordlevskiy [Gordlevskiy 1960], N.K.Dmitriyev [Dmitriyev 1962], V.V.Radlov [Radlov 1963], A.N.Kononov [Kononov 1972], V.D.Arakin [Arakin 1974], I.G.Dobrodomov [Dobrodomov 1978], A.D.Efendieva [Efendieva 1989], R.A.Yunaleeva [Yunaleeva 2000] larning rus tilidagi turkizmlarni ilmiy tadqiq qilishda xizmatlari beqiyos.

Rus tilidagi turkizmlarning maxsus lug'ati ham tuzilgan. Y.N.Shipova o'zining "Rus tilidagi turkizmlar lug'ati"da Dal, Yudaxin, Radlov singari tilshunoslarga asoslanib, rus tilidagi turkizmlarni qayd etgan [Shipova 1976]. Ushbu kitobga besh mingga yaqin turkiy so'zlar kiritilgan.

Bundan tashqari, rus tili lug'at tarkibidagi turkiy so'zlarni lingvistik tadqiq qilishga nafaqat rus, balki qozoq tilshunoslarining ham ko'plab ishlari bag'ishlangan: X.X.Mahmudov [Mahmudov 1989], N.J.Shaymerdenova [Shaymerdenova 2012], M.Sh.Musatayeva [Musatayeva 2014], M.A. Buribayeva [Buribayeva 2014] va b.

Shunga qaramay, rus tilining so'z boyligi fondida turkizmlarning rolini o'rganish hali ham dolzarbligicha qolmoqda, chunki tilshunoslikda turkizmlarning rus tili leksik tarkibiga kirishini qamrab olish bilan bog'liq hali hal etilmagan muammolar ko'p.

Ilmiy adabiyotlarda turkiy va sharq leksikasini anglatish uchun turli terminlar kuzatilmoqda. Masalan, turkiycha, shuningdek, forsha, eroncha, xitoycha, arabcha so'zlarni anglatish uchun *Sharq leksikasi, osiyo, tatar, O'rta Osiyo leksikasi, orientalizmlar, ekzotizmlar, regionalizmlar, lokalizmlar, turkiy leksika unsurlari, turkiy leksika, sharqona o'zlashmalar* kabi atama va birliklar qo'llaniladi.

Atoqli turkolog N.K.Dmitriyev «Строй тюрских языков» asarida ta'kidlashicha: «Barcha turkiy tillarda diniy, ilmiy, ma'muriy terminologiya sohasiga tegishli bo'lgan arab, mo'g'ul, fors leksik elementlarining katta qismi mavjud. Bu elementlarning barchasi turkologik asarlarda qat'iy farq qiladi» [Dmitriyev 1962, 156].

N.K.Dmitriyev «turkizm» termini ostida nafaqat sof turkiy, balki turkiy tillar orqali rus tiliga o'zlashgan arabcha, forscha, eroncha so'zlarni ham tushunadi. N.K.Dmitriyev bunday so'zlarni faqat va faqat matnda o'rganish zarurligini alohida ta'kidlaydi: «Slavyan tillari tomonidan qabul qilingan turkizmlar etimologiyasining to'liq o'rganish uchun har bir so'zning "hujjatiga" ega bo'lish va bundan tashqari, o'sha davrdagi har ikki xalqni bir-biriga bog'lagan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini aniq bilish zarur. Hozircha biz bunday hujjatlarga ega emasmiz, demak, bunda bittagina yo'l qoladi: tahlilga tortilayotgan turkizmlar faqat matnda tahlil qilinishi zarur» [Dmitriyev 1962, 205].

P.M.Meliorskiy, F.E.Korsh, S.E.Malov asarlarida «turkizm» atamasiga maxsus ta'rif berilmagan, chunki V.D.Arakin yozganidek, ularning asarlarida «*turkizm* termini ostida turkiy tillardan o'zlashgan yoki kelib chiqishiga ko'ra turkcha bo'lgan so'zni anglatishini o'z-o'zidan ayon, deb qabul qilingan» [Arakin 1974, 112].

V.D.Arakin ham N.K.Dmitriyevga o'xshab, «turkizm termini ostida turkiy tillardan rus tiliga o'zlashgan har qanday so'zni tushunish zarur»ligini ta'kidlaydi». [Arakin, 113].

Rus tilidagi turkiy so'zlarni tadqiq qilishda turkiy antroponimlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu borada olimlar Selishyev A.M. [Selishyev 1948], Chichagov V.K. [Chichagov 1959], N.Baskakov [Baskakov 1979] lar maxsus tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa, A.X.Xalikov esa 500 ta turkiy asosga ega bo'lgan рус familuyalarining ro'yxatini tayyorladi [Xalikov 1992].

Xususan, N.Baskakovning ko'p yillar oldin yaratgan «Русские фамилии тюркского происхождения» nomli monografiyasi [Baskakov 1979] bu sohadagi ilmiy izlanishlar uchun asos vazifasini o'tadi. Monografiyaning ilmiy - amaliy qiymati shunchalik muhim ahamiyatli bo'ldi-ki, u ikki marta - 1979- yilda (10000 tirajda) va 1993 -yilda (20000 tirajda) nashr qilingan.

Monografiya lug'at, kirish va 300 ta alohida maqoladan iborat bo'lib, maqolalarda har bir familiyaning tarixiy va etimologik tahlili beriladi, bu familiyaning uzoq ajdodlar laqablari bilan bog'liqligi, qarindoshlari bilan tarixiy aloqalari ham ko'rib chiqiladi.

Kirish qismida rus va turli turkiyzabon xalqlar o'rtasidagi

o'zaro munosabatlar jarayonlari, bu xalqlar o'rtasidagi yaqin munosabatlarning uzoq tarixi yoritilgan, familiyalar asosidagi laqablar (taxallus)lar tahlil qilingan va tasniflangan. Kirish bobining yakuniy qismida Oltin O'rda va uning parchalanishidan keyin tuzilgan xonliklar bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan rus familiyalarining sintetik tasnifi berilgan.

Muayyan familiyalarga bag'ishlangan maqolalarda mavjud nasl-nasablar haqida qisqacha ma'lumot berilgan, bu familiya ajdodining ruslar xizmatiga o'tishdagi taxminiy sanasi ko'rsatilgan. Bu familiyaning boshqa familiyalar va nasllar bilan aloqasi aniqlangan, familiya asosi manbai uning etimonini turli turkiy tillar so'zlari bilan solishtirish yoki manba tilini (arab, fors, mo'g'ul va b.) ko'rsatish orqali aniqlanadi.

Atoqli turkolog mazkur asarida kelib chiqishi turkiy bo'lgan familiyalarning 4 tipini aniqlagan:

1. Oltin O'rda va so'nggi tatar xonlariga yoki qadimgi o'g'uz va poloves urug'lariga bevosita bog'liq bo'lgan turkiy so'z asosidagi familiyalar. Ko'pgina familiyalar ushbu turga tegishli.

2. Sun'iy yaratilgan, nasl tomonidan G'arbiy Yevropadan deb e'lon qilingan turkcha familiyalar; ularning ota-bobolari G'arbiy Yevropa zodagon urug'larining vakillari bo'lib, G'arbiy Yevropadan kelgan muhojirlar deb ham ataladi, ular vakillarining ba'zisi ham turkiycha familiyaga ega, ya'ni ruslar tomonidan berilgan turkiycha laqab yoki turkiycha kelib chiqish bilan bog'liq. Masalan, *Tyutchev* va *Chicherin* familiyalari shular jumlasiga kiradi.

3. Asosiga ko'ra turkiy tillarga xos bo'lgan, ammo avlod-ajdodlari kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'lmagan familiyalar. Masalan, *Kurakin* (quruq, xasis < turkcha) familiyasi asosi turkiycha so'z bo'lgani bilan, urug' jihatidan Litva knyazi Gediminas va Kiyev knyazi Vladimirga borib taqaladi yoki Bulgakov (mag'rur, g'alati < turkiycha), urug' jihatidan kelib chiqishiga ko'ra Gediminas va Avliyo Vladimirdan bog'lanadi.

4. Asosi ruscha, ammo kelib chiqishi turkiycha familiyalar. Bu familiyalar *Stroganov*, *Rostopchin*, *Leontev*, *Matyushkin*, *Plemyannikov*, *Svistunov*, *Uvarov* va b.

Shuningdek, *N.A.Baskakov*, *Turchaninov*, *Cherkasskiy*, *Sheremetev*, *Saltikov*, *Apraksin*, *Baxmetev*, *Kotenin*, *Arakcheev*, *Chemodanov*, *Karamishev*, *Boldirev* va ko'plab familiyalarning kelib chiqishini turkiy so'zlarga bog'liqligini isbotlab bergan [Baskakov 1979].

Ayrim familiyalarning turkiycha asoslarini ko'rib chiqamiz.

Kutuzov turkcha *qutuz* — *qutur* yoki *quduz-qutuz* dan olingan degan faraz bor [Selishyev 1948; Chichagov 1959; Baskakov 1979].

Kutuzovlarning urug' jihatidan kelib chiqishi G'arbdan deyiladi, ammo *qutuz* so'zi asosiga ko'ra u aniq Sharqqa ishora qiladi.

Kurakin familiyasi kelib chiqishiga ko'ra Buyuk Litva knyaziga tegishli bo'lib, ammo so'z turkiy asosga ega: *quraq* ~ *quryaq*, ya'ni bu yerda ikkita ma'noda ishlatiladi: *quraq* - *quryaq* - qirg'izchada *quroq*, 'quroqlardan tuzilgan mato' — *qura* fe'lidan yasalgan - *qurya* 'yig'moq'. Qozoqchadagi ma'nolari: 1) 'quramoq', 2) 'yig'moq, tartib bermoq'.

Bulgakov – Rossiyada keng tarqalgan qadimiy familiyalardan bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra Avliyo Vladimirga bog'lanadi. *Bulgakov* familiyasi *bulyaq*, *but'ya* fe'lidan yasalgan degan faraz bor [Selishyev 1948; Chichagov 1959; Baskakov 1979]. Ma'nolari: 1) 'aralashtirmoq', 'tebratmoq', 'chayqatmoq'; 2) 'bulg'amoq'; 3) 'hilpiratmoq, tebratmoq'.

But'a- fe'lga -*q* qo'shimchasini qo'shish orqali *but'a-q* yasalgan, degan fikr ham bor [Baskakov, 1979]. Ma'nolari: 1) 'maqtanchoq'; 2) 'mag'rur yuruvchi'. Qozoqchada *ig'rap* ~ *butyaq* 'ishyoqmas', 'sang'ib yuruvchi'; oltoycha *py'faq* 'betayin odam' ma'nolari ham bor.

Keyingi bosqichda *bulyaq* asosidan *butyaqta* fe'li yasalgan: 'yurganda boshini aylantirib yuradigan', 'mag'rur bo'lish'; qozoqcha *but'yaqta* - 1) 'u tomondan bu tomonga tebranmoq'; 2) qirg'izcha *bur'yaqta* - *bu'yaqlaqta*. Ma'nolari: 1) 'o'ralmoq', 2) 'dumini likillatmoq'.

Ko'rinadiki, *Bulgakov* familiyasi *bul'aq* laqabi bilan bog'liq bo'lib, 'mag'rur', 'muhim odam' yoki 'betayin' kabi ma'nolarni bildiradi [Baskakov, 1979].

Dashkov familiyasi Oltin O'rdadan chiqqan *Dashek* nomi bilan bog'lanadi. Bu familiyaning asosi O'g'uz shevasidagi *dasyq* — *tasyq* ~ *dasik* ~ *tasik* so'zidan olingan degan farazlar bor [Selishyev 1948; Chichagov 1959; N.Baskakov 1979]. Ma'nolari: 1) 'suv toshqini'; 2) 'qirg'oqdan chiqib ketgan'. Ko'chma ma'nosi - 'o'zidan ketib qolgan odam', 'maqtanchoq'.

Dashek so'zi yana *dasik* - *tesik* ~ *tesik* 'teshik' degan ma'noni ham bildiradi. Shuningdek, eng birinchi knyaz Dashkov qulog'i teshilgan bo'lgan va sirg'a taqib yurgan, degan fikrlar ham bor [Selishyev 1948; Chichagov 1959; Baskakov 1979].

Buturlin familiyasi turkiy asosga ega bo'lgan *budur* ~ *butur* yoki *budur* ~ *butur*, ya'ni *budur* ~ *bytur* *budur* — *butur* yoki *bydyr* ~ *bytyr*

// *bidir* ~ *bitir* degan fikrlar bor [Selishyev 1948; Chichagov 1959; Baskakov 1979]. Ma'nolari: qozoqchada - 'shishirilgan', 'tekis emas' va *budyrlly* - 'qo'pol'.

Shunga ko'ra, *Buturlin* familiyasi *Buturly* turkiy asosiga ega bo'lib, <^*butur* — *budur* — *li* 'yuzi g'adir-budir', 'notekis yuzli', 'qattiq qo'pol yuzli' degan ma'nolarni bildiradi deyish mumkin.

Buturlin familiyasining kelib chiqishi arabcha so'zlarga bog'langan, degan faraz ham bor, ya'ni *Badr* ning ko'plik shakli *badur* - 'to'lin oy'; ko'chma ma'noda 'chiroyli, dum-dumaloq yuz' va *badurty* 'chiroyli ko'rinishga ega' degan ma'nolarga ega [Selishyev 1948].

Dmitriev-Mamonovlar familiyasi Smolensk knyazi Rostislav Mstislavovichdan tarqalgan bo'lsa-da, uning ikkinchi qismi turkiy asosga bog'lanadi. U mo'g'ulcha *nom/on* va turkiycha *momyn* – *moni* so'zlaridan kelib chiqqan degan farazlar bor [Selishyev 1948; Baskakov 1979]. Ma'nolari: qozoqchada: 'bo'ysunuvchan', 'sokin', 'uyatchan'; qirg'izchada *momun* - 'sabr-toqatli', 'kamtar', 'xudojo'y'.

V.Radlovning fikricha, qozoqcha *momun* so'zida, shuningdek, 'saxiy, mehmondo'st uy egasi' degan ma'nolar ham bor. Ammo bu fikr ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan [Radlov 1963, 123].

Cheglov familiyasi buyuk knyaz Aleksandr Yaroslavich nomi bilan bog'liq. Cheglov familiyasi turkiycha *coq* ~ *coy* - 'xitoy amaldorlarining bosh kiyimidagi tugmacha' ma'nosini bildiradi, deyiladi [Selishyev 1948; Baskakov 1979]. Qozoqchada: *soq* - 'yonayotgan ko'mir'; qirg'izchada: *coq* - 'bolaning boshidagi hol yoki shish'. Ko'chma ma'noda 'xitoy yoki qalmiq amaldori' ma'nosini bildiradi. Shuningdek, qirg'iz tilidagi *coqu* - 'toj', *coqco* - 'cho'qqi' ma'nolarini ham bildiradi.

Saburov familiyasi Fedor Ivanovning o'g'li Saburdan boshlanadi, deyiladi [Selishyev 1948; Baskakov 1979]. Saburov *sabur* 'sabrli', 'chidamli' ma'nolarini anglatib, bu so'z tatarlar tomonidan arab tilidan o'zlashtirilgan. Shuningdek, tatar tilida Sabur erkaklar ismi ham bor.

Godunov familiyasi turkiycha *godan* — *goden-godon* — *godun* — *kodon* — *kodun* so'zi bilan bog'liq bo'lib, masalan, bu so'z turk tilida quyidagi ma'nolarni anglatadi: *godon* - *godun* - 1) 'ichak-chavoq'; 2) ko'chma ma'noda 'aqtsiz', 'nodon - godan adam 'nodon odam' yoki oltoy tilida *kodon* — *kodiin* 'orqa', shuningdek, atoqli ot sifatida ham kelishi mumkin - *Kodon-pij* - *Koden-biy*. Bu turkiy so'z mo'g'ulcha *godon* — *godun* so'zi bilan ma'no jihatidan yaqinlashadi, ya'ni *godun* so'zi 'hayvondan shilib olingan yung' ma'nosini bildiradi [Selishyev 1948; Baskakov 1979].

Shuningdek, *Godunov* familiyasi ukrain tilidagi *godun* «boquvchi» soʻzidan olingan degan farazlar ham bor. Bu soʻz «Словарь украинского языка» da «годун годунес сто душ годував», «горшок для варки пищи» tarzida keltirilgan.

Velyaminov familiyasi tatarcha *Veli-Amin* atoqli otiga bogʻlanadi, u arabchadan oʻzlashgan *walij* — *wall* - ‘samimiy doʻst’, ‘Ollohning sevgan quli’, ‘avliyo’ maʼnolarini bildiradi, degan fikrlar bor [Selishyev 1948; Baskakov 1979].

Atun familiyasi ham turkiycha yoki moʻgʻulcha asos ega. Atun moʻgʻulchadagi *odon* - ‘yulduz’ maʼnosini bildiradi yoki turk tilidagi *ajdyn* — *ajdun* ‘nur’, ‘yaltiroq’ maʼnosini anglatadi.

XULOSA

Ayrim ruscha familiyalarining turkiy asoslari familiya egalari toʻgʻridan-toʻgʻri Polovts yoki Uzo-pecheneg muhitidan va koʻpincha Oltin Oʻrdadan kelib chiqqanligi bilan bogʻliq boʻladi. Ruscha familiyalarining turkiy asoslari rus oilasida turkiylar bilan boʻlgan aralash nikohlar, masalan, ruslarning Uzo-Pecheneglar va Kumanlar bilan (keyinchalik tatarlar bilan) aralash nikohlari ham sabab boʻlgan, deb hisoblash mumkin. Anʼanaviy rus oilasining aʼzolaridan biriga berilgan koʻplab turkiycha laqablar ham uni olgan shaxsning keyingi avlodlariga meros boʻlib qolgan va ushbu laqab/taxallus yangi familiyani olishiga va eski familiya shu tariqa toʻxtashiga taʼsir koʻrsatgan. Ammo koʻplab slavyan familiyalarida turkiycha asoslar mavjud boʻlsa-da, bu familiyaga ega insonlarning turkiy xalqlardan kelib chiqishini isbotlamaydi.

Laqab/taxallus, odatda, muayyan shaxsning mulki yoki belgisini koʻrsatadi, maqolada keltirilgan semantik tahlillarda (koʻpincha salbiy maʼnodagi) u yoki bu sifat asosida familiyalar berilganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar

- Срезневский, И.И. 1854. *Материалы для сравнительного и объяснительного словаря и грамматики*. СПб.: Издание II-го Отделения Императорской Академии наук.
- Рихтер, А.Ф. 1822. *Нечто о влиянии монголов и татар на Россию* // Труды Вольного Общества любителей российской словесности. Ч. 17. СПб.
- Эрдман, Ф. И. 1828. *Изъяснение некоторых слов, перешедших из восточных языков в русский*. «Казанский вестник». Ч. 24. Кн. 9. Казань.
- Казембек, А. 1852. *Объяснение русских слов, сходных со словами восточных языков* // Прибавления к Известиям по

- Отделению русского языка и словесности Имп. Академии наук. Т. 1. СПб.
- Ильминский, И.И. 1857. *Бабер-намэ или Записки Султана Бабера* / Изд. в подлинном тексте И.Ильминским. Казань.
- Мухлинский, О. 1858. *Выбор турецких статей для начального перевода с грамматическим разбором*. СПб.
- Березин, И.Н. 1865. *Внутреннее устройство улуса Джучиева по ханским ярлыкам*. - СПб.
- Наливкин, В.П., Наливкина, М.В. 1886. *Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы*. Казань: Тип. Имп. Университета.
- Мелиоранский, П.М. 1902. *Турецкие элементы в языке «Слова о полку Игореве»*. — ИОРЯС. Т. 7. Кн. 2. - СПб., - С. 273-302.
- Корш, Ф. Е. *Турецкие элементы в языке «Слова о полку Игореве»*. (Заметки к исследованию П. М. Мелиоранского: ИОРЯС, т. VII, кн. 2, с. 273—302).
- Лыкошин, Н.С. 1916. *Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения*. - СПб.
- Наливкин, В. П. 1886. *Краткая история Кокандского ханства*. Казань.
- Абаев, В.И. 1949. *Осетинский язык и фольклор*. Т. 1. М. -Л.
- Малов, С.Э. 1951. *Памятники древнетюркской письменности*. Тексты и исследования. М.-Л.
- Гордлевский, В.А. 1960. *Государство Сульджукидов Малой Азии // Избранные сочинения. Исторические работы*. М.: Издательство вост. лит.,
- Дмитриев, Н.К. 1962. *Строй тюркских языков*. Сб. избр. трудов. М.
- Радлов, В.В. 1963. *Опыт словаря тюркских наречий*. В 4 т. М.
- Кононов, А.Н. 1972. *История изучения тюркских языков в России. До-октябрьский период*. Л.
- Аракин, В.Д. 1974. *Тюркские лексические элементы в памятниках русского языка монгольского периода // Тюркизмы в восточнославянских языках*. М.: Наука, - С. 112-148.
- Добродомов, И.Г. 1978. *О половецких этнонимах в древнерусской литературе // Тюркологический сборник*. М., -С. 102-129.
- Эфендиева, А.Д. 1989. *Очерки по истории лексикологии русского языка*. -М.
- Юналеева, Р.А. 2000. *Тюркизмы русского языка (проблемы полиаспектного исследования)*. Казань: Таглитмат.
- Шипова, Е.Н. 1976. *Словарь тюркизмов в русском языке*. Алма-ата.
- Махмудов, Х.Х. 1989. *Русско-казахские лингво-стилистические взаимосвязи*. - Алма-ата.
- Шаймерденова, Н.Ж. 2012. *Тюркские языки в евразийском пространстве: современное состояние, тенденции и перспективы*. Астана.
- Жаналина, Л.К., Мусатаева М.Ш. 2014. *Практический курс русского языка*. Алма-ата.
- Бурибаева, М.А. 2014. *Тюркизмы в русском языке. От вариантов к норме*. Алма-ата.

- Дмитриев, Н.К. 1962. *Строй тюркских языков*. Москва: Изд-во восточной литературы. – С.156.
- Дмитриев, Н.К. 1954. *Строй тюркских языков*. - С. 507-508.
- Аракин, В.Д. 1974. *Тюркские лексические элементы в памятниках русского языка монгольского периода // Тюркизмы в восточнославянских языках*. М.: Наука, - С. 112.
- Аракин, В.Д. 1974. *Тюркские лексические элементы в памятниках русского языка монгольского периода // Тюркизмы в восточнославянских языках*. - М.: Наука, - С. 113.
- Селищев, А. М. 1948. *Происхождение русских фамилий, личных имен и прозвищ // «Уч. зап. МГУ. Труды кафедры русского языка», вып. 128*. М., - С. 137-141.
- Чичагов, В.К. 1959. *Из истории русских имен, отчеств и фамилий*. М.
- Баскаков, Н. 1979. *Русские фамилии тюркского происхождения* (Отв. ред. Э. Р. Тенишев; Институт языкознания АН СССР. - М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, -280 с.
- Халиков, А.Х. 1992. *500 русских фамилий болгаро-татарского происхождения*. Казань.
- Баскаков, Н. 2012. *Русские фамилии тюркского происхождения*. - С. 80.

ABOUT THE TURKISH FOUNDATIONS OF SOME RUSSIAN FAMILIES

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/PSIS4086

Saodat Mukhamedova¹

Abstract

This article describes the study of Turkish words in Russian and the study of Russian-language words from Oriental languages, especially Turkish. This article also analyzes the subject-related research by N.Baskakov, V.Radlov, and other scholars, thus commenting on the Turkish roots of some Russian families.

Key words: *Turkish, Turkish-based names, Turkish-based families, linguistic associations, dictionary of Turkish-language Turkisms.*

¹Saodat Mukhamedova Khudoyberdievna - doctor of philology, professor, dean of the faculty of teaching the Uzbek language of Tashkent State Uzbek Language University named after Alisher Navoi

E-mail: muhamedova.saodat@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2104-450X

For reference: Muhamedova, S.Kh. 2023. "About the turkish foundations of some russian families" Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5): 4-15. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/PSIS4086.

Reference

- Sreznevskiy, I.I. 1854. *Materiali dlya sravnitel'nogo i obyasnitel'nogo slovarya i grammatiki*. SPb.: Izdanie II-go Otdeleniya Imperatorskoy Akademii nauk.
- Rixter, A.F. 1822. *Nechto o vliyaniy mongolov i tatar na Rossiyu* // Trudi Volnogo Obshestva lyubiteley rossiyskoy slovesnosti. Ch. 17. SPb.
- Erdman, F. I. 1828. *Izясnenie nekotoryx slov, pereshedshix iz vostochnix yazikov v rossiyskiy*. «Kazanskiy vestnik». Ch. 24. Kn. 9. Kazan.
- Kazembek, A. 1852. *Obyasnenie russkix slov, sxodnix so slovami vostochnix yazikov* // Pribavleniya k Izvestiyam po Otdeleniyu russkogo yazika i slovesnosti Imp. Akademii nauk. T. 1. SPb.
- Ilminskiy, I.I. 1857. *Baber-name ili Zapiski Sultana Babera* / Izd. v podlinnom tekste I. Ilminskim. Kazan.
- Muxlinskiy, O. 1858. *Vibor turetskix statey dlya nachalnogo perevoda s grammaticheskim razborom*. SPb.
- Berezin, I.N. 1865. *Vnutrennee ustroystvo ulusa Djuchieva po xanskim yarlikam*. - SPb.
- Nalivkin, V.P., Nalivkina, M.V. 1886. *Ocherk bita jenshini osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani*. Kazani: Tip. Imp. Universiteta.
- Melioranskiy, P.M. 1902. *Turetskie elementi v yazike «Slova o polku Igoreve»*. — IORYaS. T. 7. Kn. 2. - SPb., - S. 273-302.
- Korsh, F. Ye. *Turetskie elementi v yazike «Slova o polku Igoreve»*. (Zametki k issledovaniyu P. M. Melioranskogo: IORYaS, t. VII, kn. 2, s. 273—302).
- Likoshin, N.S. 1916. *Poljizni v Turkestane. Ocherki bita tuzemnogo naseleniya*. - SPb.
- Nalivkin, V. P. 1886. *Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva*. Kazan.
- Abaev, V.I. 1949. *Osetinskiy yazik i folklor*. T. 1. M. -L.
- Malov, S.E. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Teksti i issledovaniya. M.-L.
- Gordlevskiy, V.A. 1960. *Gosudarstvo Suldjukidov Maloy Azii* // Izbrannie sochineniya. Istoricheskie raboti. M.: Izdatel'stvo vost. lit.,
- Dmitriev, N.K. 1962. *Stroy tyurkskix yazikov*. Sb. izbr. trudov. M.
- Radlov, V.V. 1963. *Opit slovarya tyurkskix narecheniy*. V 4 t. M.
- Kononov, A.N. 1972. *Istoriya izucheniya tyurkskix yazikov v Rossii*. Dooktyabrskiy period. L.
- Arakin, V.D. 1974. *Tyurkskie leksicheskie elementy v pamyatnikax russkogo yazika mongol'skogo perioda* // Tyurkizmi v vostochnoslavjanskix yazikax. M.: Nauka, - S. 112-148.
- Dobrodomov, I.G. 1978. *O polovetskix etnonimax v drevnerusskoy literature* // Tyurkologicheskij sbornik. M., -S. 102-129.
- Efendieva, A.D. 1989. *Ocherki po istorii leksikologii russkogo yazika*. -M.
- Yunaleeva, R.A. 2000. *Tyurkizmi russkogo yazika (problemi poliaspekt'nogo issledovaniya)*. Kazani: Taglimat.
- Shipova, Ye.N. 1976. *Slovari tyurkizmov v russkom yazike*. Alma-ata.
- Maxmudov, X.X. 1989. *Russko-kazaxskie lingvo-stilisticheskie vzaimosvyazi*. - Alma-ata.

- Shaymerdenova, N.J. 2012. *Tyurkskie yaziki v yevraziyskom prostranstve: sovremennoe sostoyanie, tendentsii i perspektivy*. Astana.
- Janalina, L.K., Musataeva M.Sh. 2014. *Prakticheskiy kurs russkogo yazika*. Alma-ata.
- Buribaeva, M.A. 2014. *Tyurkizmi v russkom yazike. Ot variantov k norme*. Alma-ata.
- Dmitriev, N.K. 1962. *Stroy tyurkskix yazikov*. Moskva: Izd-vo vostochnoy literaturi. – S.156.
- Dmitriev, N.K. 1954. *Stroy tyurkskix yazikov*. - S. 507-508.
- Arakin, V.D. 1974. *Tyurkskie leksicheskie elementi v pamyatnikax russkogo yazika mongolskogo perioda // Tyurkizmi v vostochnoslavyanskix yazikax*. M.: Nauka, - S. 112.
- Arakin, V.D. 1974. *Tyurkskie leksicheskie elementi v pamyatnikax russkogo yazika mongolskogo perioda // Tyurkizmi v vostochnoslavyanskix yazikax*. - M.: Nauka, - S. 113.
- Selishev, A. M. 1948. *Proisхождение russkix familiy, lichnykh imen i prozviskh // «Uch. zap. MGU. Trudi kafedri russkogo yazika», vip. 128. M., - S. 137-141.*
- Chichagov, V.K. 1959. *Iz istorii russkix imen, otchestv i familiy*. M.
- Baskakov, N. 1979. *Russkie familii tyurkskogo proisxozhdeniya* (Otv.red. E. R. Tenishev; Institut yazikoznaniya AN SSSR. - M.: Nauka, Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi, -280 s.
- Xalikov, A.X. 1992. *500 russkix familiy bulgaro-tatarskogo proisxozhdeniya*. Kazan.
- Baskakov, N.2012. *Russkie familii tyurkskogo proisxozhdeniya*. - S. 80.